



KORPORATIV BOSHQARUVNING GLOBAL TENDENSIYALARI VA ULARNING XALQARO INVESTITSİYALARGA TA'SIRI

Ro'zimboyeva Kumushoy Shodlik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy

huquq fakulteti bosqich talabasi

Rozimboyevakumush34@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ boshqaruvning zamonaviy global tendensiyalari va ularning xalqaro investitsiyalarga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlarining o'sib borayotgan ahamiyati, raqamli transformatsiya, direktorlar kengashining xilma-xilligi va aksiyadorlar faolligi kabi dolzarb mavzular yoritilgan. Shuningdek, maqolada milliy va xalqaro regulyativ o'zgarishlar, korporativ boshqaruv amaliyotlarining mintaqaviy farqlari hamda pandemiyaning ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqola korporativ boshqaruvning milliy va global kontekstdagi ahamiyatini o'rganish, xalqaro investitsiyalar oqimini yaxshilash bo'yicha strategik tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, xalqaro investitsiyalar, ESG mezonlari, raqamli transformatsiya, direktorlar kengashi, aksiyadorlar faolligi, milliy regulyatsiya, iqtisodiy barqarorlik, xalqaro standartlash.

Abstract: This article analyzes modern global trends in corporate governance and their impact on international investments. It covers key principles of corporate governance,



the growing importance of ESG (environmental, social, and governance) criteria, digital transformation, board diversity, and shareholder activism. Additionally, the article examines national and international regulatory changes, regional differences in corporate governance practices, and the impact of the COVID-19 pandemic. The paper aims to explore the significance of corporate governance in both national and global contexts and provides strategic recommendations to enhance the flow of international investments.

Keywords: corporate governance, international investments, ESG criteria, digital transformation, board diversity, shareholder activism, national regulation, economic stability, international standardization.

Аннотация: В данной статье анализируются современные глобальные тенденции корпоративного управления и их влияние на международные инвестиции. Рассматриваются ключевые принципы корпоративного управления, растущее значение критериев ESG (экологические, социальные и управленческие аспекты), цифровая трансформация, разнообразие состава советов директоров и активизм акционеров. Кроме того, в статье изучаются национальные и международные регуляторные изменения, региональные различия в практике корпоративного управления, а также влияние пандемии COVID-19. Цель статьи — исследовать значение корпоративного управления в национальном и глобальном контексте и предложить стратегические рекомендации для улучшения притока международных инвестиций.

Ключевые слова: корпоративное управление, международные инвестиции, критерии ESG, цифровая трансформация, разнообразие совета директоров, активизм акционеров, национальное регулирование, экономическая стабильность, международная стандартизация.



KIRISH

Zamonaviy biznes muhitida korporativ boshqaruv tizimi xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda korporativ boshqaruv amaliyotlari global miqyosda sezilarli darajada o'zgardi, bu esa moliyaviy bozorlar va investitsiya oqimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tahliliy material korporativ boshqaruvning hozirgi global tendensiyalarini ko'rib chiqadi va ularning xalqaro investitsiyalarga qanday ta'sir qilayotganini o'rganadi.

Eng avvalo korporativ boshqaruvning global tendensiyalari va ularning xalqaro investitsiyalarga ta'siri haqida to'xtalib o'tar ekanmiz biz bunda eng avvalo xalqaro qonunchilik hamda milliy qonunchiligimizdan va shu bilan birgalikda olimlarning nazariy tamoyillaridan kelib chiqqan holda buni tahlil qilib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Korporativ boshqaruvning global tendensiyadagi o'rni hamda uning xalqaro investitsiyalarga ta'sirini aniqlashda bevosita iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar mazmun mohiyatini, qonunchilik hujjatlari, ilmiy va boshqa manbalar asosida tahlil qilish bilan birgalikda korporativ boshqaruvning zamoniy konsepsiyalari va global tendensiyalarini ko'rib chiqamiz.

Korporativ boshqaruvning zamonaviy konsepsiyasi.

Korporativ boshqaruv - bu kompaniyalarni boshqarish va nazorat qilish tizimi bo'lib, kompaniya manfaatdorlari (boshqaruv organlari, aksiyadorlar, xodimlar, mijozlar, ta'minotchilar, mahalliy jamiyat va davlat) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Samarali korporativ boshqaruv kompaniya barqarorligi hamda uni uzoq muddatli rivojlanishi va investitsion jozibadorligini ta'minlaydi

Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari quyidagilar:



Shaffoflik – bu kompaniya faoliyati to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarni oshkor qilish

Javobgarlik –bu boshqaruv organlarining o'z qarorlari uchun mas'uliyati

Adolatlilik – bu barcha manfaatdor tomonlarning huquqlarini teng himoya qilish

Mas'uliyat –bu kompaniyaning qonuniy talablarga va jamiyat oldidagi majburiyatlarga rioya qilishi

Mustaqillik –bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tashqi ta'sirlardan himoya qilishdan iborat.

Endi eng asosiy tushuncha **Korporativ boshqaruvning global tendensiyalari** haqida to'xtalib o'tamiz. ESG (Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlarining o'sib boruvchi ahamiyati So'nggi yillarda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga qo'shimcha ravishda ularning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) amaliyotlariga ham e'tibor qaratmoqdalar. Bu tendensiya esa investorlarning "uchinchi qator" ko'rsatkichlarini baholashga bo'lgan qiziqishining oshishini ko'rsatadi. ESG mezonlari quyidagilardan tashkil topgan.

Ekologik- iqlim o'zgarishi, resurslardan foydalanish, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Ijtimoiy - inson huquqlari, mehnat sharoitlari, xilma-xillik va inklyuzivlik, mahalliy jamiyat bilan munosabatlar.

Boshqaruv - direktorlar kengashi tuzilmasi, korrupsiyaga qarshi kurash, axloq kodeksi.

Bu tendensiya 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasidan so'ng yanada



kuchayganini turli xalqaro maqolalar statistic ma'lumotlardan bilishimiz mumkin, chunki o'sha paytdagi global inqiroz kompaniyalarning barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qimmatli qog'ozlardan tashqari jihatlarini birinchi o'ringa qo'ydi.

Raqamli transformatsiya va texnologiyalarning ta'siri

Raqamlashtirish korporativ boshqaruv amaliyotlarini tubdan o'zgartirmoqda:

Virtual yig'ilishlar va masofaviy ovoz berish - direktorlar kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini o'tkazish uchun yangi formatlar.

Blokchein texnologiyasi - aksiyadorlik reestrlari va ovoz berish jarayonlarini saqlash va himoya qilish uchun ishlatiladi, ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt - qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish va risklarni bashorat qilish, kiberxavfsizlik - kompaniya ma'lumotlarini himoya qilish uchun yangi boshqaruv standartlaridir.

Bu o'zgarishlar orqali kompaniyalar o'z boshqaruv jarayonlarini yanada samarali va shaffof qilmoqdalar, bu esa investorlar uchun qo'shimcha ishonch yaratadi.

Direktorlar kengashi tarkibining xilma-xilligi.

Direktorlar kengashida gender, etnik va kasbiy xilma-xillikni ta'minlash tendensiyasi kuchaymoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xilma-xil tarkibga ega bo'lgan kengashlar yaxshiroq qarorlar qabul qiladi va kompaniya faoliyatini yaxshilaydi. Masalan yaqindagi global statistikaga qaraydigan bo'lsak unga ko'ra: So'nggi 5 yil ichida korporativ kengashlarda ayollar ulushi o'rtacha 10% ga oshganini, Fortune 500 kompaniyalarining 45% dan ortig'ida kengash tarkibida kamida 30% ayollar mavjudligi, hamda Yevropa Ittifoqida ko'plab mamlakatlar direktorlar kengashida gender kvotalarini o'rnatilganini ko'rishimiz mumkin.

Aksiyadorlar faolligining kuchayishi



Aksiyadorlar, ayniqsa institutsional investorlar, kompaniya strategiyasi va boshqaruviga ta'sir ko'rsatishda tobora faolroq bo'lib bormoqdalar. Hozirgi kunda faol aksiyadorlar kompaniyalarni o'zgartirish va boshqaruv tarkibini almashtirish yoki strategik yo'nalishlarni o'zgartirish uchun kampaniyalar o'tkazmoqdalar

Stewardship (vasiylik) kodekslari institutsional investorlarni kompaniyalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda faol ishtirok etishga undaydi jumladan aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyat to'g'risidagi qonunlari, izda hamda international LLP aktlarida ham vakillik masalari yoritilib o'tilgan. Shuningdek, aksiyadorlar taklifi ya'ni kompaniyaning ijtimoiy va ekologik siyosatlarini o'zgartirish uchun tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Xalqaro standartlash va milliy farqlar

Global bozorda korporativ boshqaruv standartlari bir-biriga yaqinlashib bormoqda, lekin milliy va mintaqaviy farqlar ma'lum darajada saqlanib qolmoqda:

Anglo-sakson (AQSh, Buyuk Britaniya) - aksiyadorlar manfaatlariga yo'naltirilgan,

bozor mexanizmlari orqali nazorat qilinadi, investorlar soni yuqori, direktorlab saylanib ular tomonidan boshqarilishi.

Kontinental Yevropa (Germaniya, Fransiya) - manfaatdorlar modeliga asoslangan, bank nazorati kuchliroq

Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya) - biznes guruhlari (keiretsu, chaebol) va davlat roli muhim. Shunga qaramay, OECD korporativ boshqaruv tamoyillari kabi xalqaro standartlar bu farqlarni kamaytirmoqda.

KORPORATIV BOSHQARUV TENDENSIYALARINING XALQARO
INVESTITSİYALARGA TA'SIRI



Investitsiya qarorlariga ta'siri

Korporativ boshqaruv sifati xalqaro investitsiya oqimlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi: Investitsiya risklarini kamaytirish ya'ni sifatli korporativ boshqaruv investorlar uchun kompaniya barqarorligi va shaffofligi kafolati bo'lib xizmat qiladi. Kapital narxini pasaytiradi bunda yaxshi boshqariladigan kompaniyalar odatda past foiz stavkalari bilan moliyalashtirishni jalb qila oladilar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) - kuchli korporativ boshqaruv standartlariga ega mamlakatlar ko'proq TXI jalb qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rschimiz mumkinki, korporativ boshqaruv sifati bilan investitsiya oqimlari o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud.

ESG investitsiyalari va barqaror moliyalashtirish

ESG mezonlarini hisobga oluvchi investitsiyalar so'nggi yillarda keskin o'sdi masalan 2020-2025 yillar oralig'ida global ESG aktivlari 30 trillion dollardan oshdi va "Yashil obligatsiyalar" va "barqaror obligatsiyalar" chiqarilishi rekord darajaga yetdi. Barqaror investitsiyalar nafaqat ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Milliy va xalqaro regulyativ o'zgarishlar

Korporativ boshqaruv bo'yicha yangi qonunlar va nizomlar xalqaro investitsiya landshaftini o'zgartirmoqda:

Yevropa Ittifoqining Korporativ Barqarorlik Hisoboti Direktiva (CSRD) - kompaniyalardan barqarorlik bo'yicha keng qamrovli hisobotlarni talab etiladi

AQShning Sarbanes-Oxley qonuni va uning global ta'siri - moliyaviy hisobotlar va ichki nazorat standartlarini ko'paytirdi.



Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) - moliyaviy hisobotlarni global standartlashtirish Bu o'zgarishlar ko'pincha milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatadi va xalqaro investorlar uchun yangi talablar va imkoniyatlar yaratadi.

Mintaqaviy investitsiya tendensiyalari

Korporativ boshqaruv amaliyotlari turli mintaqalarda investitsiyalarga turlicha ta'sir ko'rsatadi:

Rivojlangan bozorlarda - institutsional investorlar korporativ boshqaruv sifatini muhim faktor sifatida ko'rib chiqadilar

Rivojlanayotgan bozorlarda - korporativ boshqaruvni takomillashtirish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy vositasi hisoblanadi

Bozor transformatsiyasi davrida - korporativ boshqaruv islohotlari ko'pincha investitsiya oqimini sezilarli darajada oshiradi

COVID-19 pandemiyasi va uning ta'siri

Pandemiya korporativ boshqaruvning bir qator jihatlarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi Krizislarni boshqarish ko'nikmalariga e'tibor kuchaydi – Kompaniya barqarorligi asosiy vazifaga aylandi va Ishchi kuchi va ta'minot zanjirlari bilan bog'liq risklarni boshqarish ahamiyati oshdi hamda Raqamli transformatsiya korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylandi

O'ZBEKISTON UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV TENDENSIYALARINING AHAMIYATI

O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiya va xalqaro integratsiya bosqichida ekan, global korporativ boshqaruv tendensiyalarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega misol qilib, Davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish jarayonida global standartlarni qo'llash



, xususiyl sektor uchun korporativ boshqaruv kodeksini takomillashtirish hamda xalqaro investorlar talablariga javob beruvchi boshqaruv tizimlarini joriy etish va ESG standartlarini milliy bozor sharoitlariga moslashtirish O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" doirasida korporativ boshqaruv islohotlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan, bu esa xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

KELAJAK TENDENSIYALARI VA PROGNOZLAR

Korporativ boshqaruvning kelajakdagi global tendensiyalari quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Ma'lumotlar muhofazasi va kiberhavsizlik yuqori ustuvorliklarga ega bo'ladi

Stakeholder capitalism (manfaatdorlar kapitalizmi) modeli yanada keng tarqaladi

Sun'iy intellekt korporativ qarorlar qabul qilishda tobora muhim rol o'ynaydi

Iqlim o'zgarishi riski boshqaruv strategiyalarining asosiy qismiga aylanadi - Korporativ madaniyat va etika korporativ boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib qoladi deb turli xildagi pragnozlashni misol qilib keltirishimiz mumkin.

XULOSA

Hozirgi kunda korporativ boshqaruvning global tendensiyalari xalqaro investitsiyalar oqimiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. ESG, raqamlashtirish, xilma- xillik va aksiyadorlar faolligining o'sishi kabi tendensiyalar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini belgilaydigan asosiy omillarga aylanyotganini ko'rishimiz mumkin. Korporativ boshqaruv standartlari globallasuvi va uyg'unlashuvi davom etayotgan bir paytda, milliy va mintaqaviy farqlar ham o'z navbatida saqlanib qolmoqda. Bu farqlarni tushunish va hisobga olish xalqaro investitsiya strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Kelajakda, korporativ boshqaruv amaliyotlari yanada yuqori darajadagi shaffoflik, mas'uliyat va



manfaatdorlar ishtiroki tomon rivojlanishda davom etishi kutilmoqda. Bu esa o'z navbatida investorlar ishonchini mustahkamlaydi va global investitsiya landshaftini o'zgartiradi. Kompaniyalar va mamlakatlar uchun korporativ boshqaruv tizimlarini zamonaviy global tendensiyalarga moslashtirishga e'tibor qaratish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD (2023). "G20/OECD Principles of Corporate Governance". OECD Publishing, Paris.
2. McKinsey & Company (2024). "Global trends in corporate governance". McKinsey Quarterly Report.
3. Azizov, A., & Karimov, B. (2023). "O'zbekistonda korporativ boshqaruv: xalqaro tajriba va milliy amaliyot". Toshkent: O'zbekiston.
4. BlackRock Investment Institute (2024). "2024 Global Investment Outlook: The ESG Factor". BlackRock, New York.
5. International Monetary Fund (2024). "Global Financial Stability Report: The Role of Corporate Governance". IMF, Washington.
6. B.YU Xodiyev, R.X Karlibayeva Korporativ Boshqaruv darsligi
<https://drive.google.com/file/d/19fo2kIpUASLExesmU2FMeqxkEWGcPOml/view>